

QO'SHALOQ TADBIR



QO'SHALOQ TADBIR

Bugun So'x tumani Alisher Navoiy nomidagi yoshlar ilmiy ijodiy markazida fasllar kelinchagi - Bahorga bag'ishlab, "Assalom, bahor!" mavzusi ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda ishtirok etgan 6 va 12-sonli UO'T maktablari o'quvchilari bahorga bag'ishlab adabiy-badiiy kompozitsiya namoyish etishdi.

Shuningdek, buyuk o'zbek shoirasi Zulfiyaxonumning tavalludiga bag'ishlangan tadbir ham barchaga birdek manzur bo'ldi. "Zulfiyaxonum izdoshlari" shiori ostida tashkil etilgan ushbu tadbirda buyuk shoiraga bo'lgan ehtirom samimiy she'r va qo'shiqlar ila bayon etildi. Tadbirda ishtirok etgan tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev barcha ishtirokchilarni ushbu ayyom bilan qutlab, bunday tadbirlarni muntazam tashkil etish lozimligini bildirdi. Tadbir davomida faol ishtirokchilar va ikkala maktab jamoalari va o'quvchilariga tuman prokuraturasi va XTB ning esdalik sovg'alari topshirildi. Bahorning ilk kunida tashkil etilgan mazkur tadbir ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2021-03-02 10:17:41